

## Korxonalarda Mehnat Jarayonini Rivojlantirish Istiqbollari

*Jo'rayev Olimjon Narkulovich<sup>1</sup>*  
*Mixliyev Umirzoq Sherzod o'g'li<sup>2</sup>*  
*Xudoyberdiyeva Zaynura Feruz qizi<sup>3</sup>*

**Anotatsiya:** Maqolada Qashqadaryo viloyati aholining bandlik darajasini oshirish borasida sanoat tarmoqlarining o'rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlanish sharoitida, jumladan neft-gaz, kimyo, yengil sanoat yo'nalishini rivojlantirishning va mavjud qo'shma korxonalar bilan hamkorlikda ishlab chiqilayotgan dasturlarning istiqbolli yo'nalishlari yoritilgan.

**Asosiy tushunchalar:** aholining bandlik darajasi, mehnat resurslari, sanoat tarmoqlari, ish o'rinlari, ishsizlik, tadbirkorlik.

**Kirish.** Bugungi mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish sharoitida mehnat jarayoni to'g'risidagi nazariy va amaliy tasavvurlarni o'zgartirib, jamiyat faoliyati rivojining mutlaqo yangi asoslari ishlab chiqilishini taqazo etadi. Mehnat jarayoni va uni tashkil etish mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish sharoitida muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, u muntazam ravishda tadqiq etish va aniqlashni talab qiladigan ko'p qirrali tushunchadir. Bundan kelib chiqadiki, jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy muammolariga mehnat jarayoni tushunchasi nuqtai nazaridan yondashish mumkin.

**Metodologiya.** Inson o'z tabiatiga ko'ra, ijtimoiy mavjudotdir. U o'ziga va yaqin kishilariga turmush kechirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Shu tariqa iqtisodiyot olami vujudga keladi. Insoniyat taraqqiyotining tarixi – iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, ijtimoiy mehnat taqsimoti sohasidagi munosabatlarning rivojlanish tarixidir. Payg'ambarimiz Muhammad (S.a.v.) jamiyatda mehnatning tutgan o'rini yuksak baholab, "Mehnat qilishdan uyalmang. Mehnat qilish – ibodat qilish bilan barobar", - deb uqtirganligini ta'kidlagan holda, bugungi kunda ham mehnat va u bilan bog'liq jarayonni o'rganishga bo'lgan jarayonni o'rganishga bo'lgan intilish yanada rivoj topib, iqtisodiyotda muhim o'rin tutishini yana bir bor ta'kidlamoq darkor.

Mehnat jarayoni to'g'risidagi qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi insoniyat tarixiga bevosita ta'sir ko'rsatgan nazariyalar hamda fikrlar bilan bog'liq bo'lib, ular insonning eng muhim, uni boshqa jonzotlardan farqlaydigan mohiyatiga – mehnat qila olish qobiliyatiga, ya'ni tabiat ashyolarini ongli ravishda o'zgartirib, ularga ta'sir o'tkaza borib, ularni o'z talab ehtiyojlariga moslashtira olishga taalluqlidir.

Mehnat va mehnat jarayoni xaqida bugungi kundagi nazariyalarning asosida ilk Sharq va G'arb mutafakkirlar, iqtisodchi-olimlar, amaliyotchi arboblarning qarashlari yotadi va ular uzoq tarixga ega.

Jumladan, Sharq mutafakkirlaridan Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Farobiyning "Fozil odalar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", XV asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning ko'plab asarlarida mehnatning insoniyat rivojidagi ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan.

Bundan tashqari mashhur G'arb iqtisodchi-olimlaridan biri A.Smids (1723-1790) ning "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" asarida (1776) mamlakat boyligi moddiy ishlab chiqarish mahsulotlari bilan belgilanishi to'g'risidagi qoidalar bayon qilingan.

<sup>1</sup> Qarshi Davlat universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi

<sup>2,3</sup> Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari



Ingliz moliyachisi va siyosiy iqtisod klassik maktabining yirik namoyondasi D.Rikardo(1772-1823) mehnat to'g'risidagi iqtisodiy nazariya yo'nalishlaridan birining asoschisi hisoblanadi. U "Siyosiy iqtisod va soliq solish asoslari" asarida "Tovarning qiymati yoki u ayirboshlanayotgan birorta boshqa tovarning miqdori uni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnatga to'lanadigan ko'proq yoki kamroq haqqa emas, balki shu mehnatning nisbiy miqdoriga bog'liq bo'ladi" degan fikrni aytgan.

Biroq "mehnat barcha boyliklarning manbai emas. Tabiat manba" Ammo "inson tabiatiga azaldan barcha vositalar va mehnat predmetlarining birinchi manbai sifatida qarab, uni (tabiatni) o'ziga tegishli deb bilar ekan, uning mehnati qiymat va boylik manbaiga aylanadi". Mehnat "qiymat mehnat taqsimotini tartibga soluvchi rol o'ynaydigan" tovar iqtisodiyotidagina almashuv qiymatini belgilaydi. Ijtimoiy mehnatning har bir taqsimoti mehnat mahsuliga qiymat shaklini bermaydi, balki faqat jamiyat tomonidan bevosita tashkillashtirilmagan, bozor va aksincha tovarlar almashinuvi orqali bilvosita tartibga solinadigan mehnat taqsimoti mahsulotga qiymat shaklini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat raqobatbardoshligiga erishishning asosiy yo'llaridan biri-mehnat jarayonini tashkil etish, uni me'yorlash va shular asosida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini o'stirish katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ma'lumki mehnat jarayoni – bu, avvalo kishi mehnati, mehnat predmeti va mehnat vositalarini o'z ichiga oladi. Mehnat – kishilarning ma'lum bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyati bo'lib, bu faoliyat natijasida ular tabiatdagi mavjud narsalarga ta'sir etishi, o'zgartirishi, o'z hoxish-istaklariga moslashtirishi orqali moddiy ne'matlar va madaniy boyliklar yaratishlari mumkin.

Bizga ma'lumki kishi mehnati yo'naltirilgan tabiatdagi barcha narsalar mehnat predmeti, deyiladi. Kishilar o'z mehnat predmetiga qanday vositalar orqali ta'sir ko'rsatsalar, ana shunga mehnat vositalari deyiladi. Mehnat vositalari orasida mehnat qurollari hozirgi vaqtda muhim rol o'ynaydi. Mehnat predmeti bilan mehnat vositalari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi. Shunday bo'lsada, ishlab chiqarish vositalari har qancha rivojlangan, zamonaviy, takomillashgan bo'lsa-da, o'z-o'zidan harakatga kelmaydi. Ular faqat bir kuch ya'ni, ishchi kuchi bilan birlashgandan so'nggina harakatga keladi, mehnat jarayoni amalga oshadi, moddiy ne'matlar ishlab chiqariladi yoki biron-bir xizmat turi ko'rsatiladi. Demak, mehnat jarayoni, ya'ni moddiy ne'matlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida kishilarning bevosita mehnati muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun mehnat jarayonini oqilona tashkil etish, uni maqsadga muvofiq sarflash, bekordan-bekor isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va shular asosida ishlab chiqarishning, xizmat ko'rsatishning samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining hozirgi innovatsion sharoitidagi muhim va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mehnat jarayonini tashkil etish ishlari quyidagi bir qancha ishlar orqali olib boriladi:

1. Korxonalar va tashkilotlarda texnika, texnologiya, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish jarayonlarining rivojlanishi, xodimlarning madaniy-texnika darajasining yuqorilashib borishi tufayli mehnatni to'g'ri taqsimlanishi. Bu vazifalarni hal etish eng avvalo, ijrochilarni joy-joyiga qo'yishni va ularning ish vaqtidan samarali foydalanishni ta'minlovchi eng kerakli yo'llarni belgilashni, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi har bir a'zoning vazifalarini, huquq va burchlarini to'g'ri va aniq belgilashni ko'zlaydi;

2. Ishchi-xodimlarning ish joylarini to'g'ri tashkil etish, ularga xizmat ko'rsatishni muntazam takomillashtirib borish, xodimni zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash, ish joylariga ishga sarflanadigan vaqtning behuda ketishiga barham beradigan eng samarali xizmat ko'rsatish tizimlarini amalda joriy qilish;

3. Mehnat jarayonlarini takomillashtirishda zamonaviy mehnat usul va uslublarini joriy qilish. Bu ishga ishchi-xodimlarning yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi mehnat jarayonini loyihalash va amalda joriy qilish, shuningdek, mehnatning eng zamonaviy usullarini o'rganish, tanlash va amaliyotga joriy etish yo'li bilan erishiladi;

4. Ishchi-xodimlarni tanlash, ularni mehnat jarayonlariga tayyorlash va muntazam malakasini oshirishni tashkil etish ishlarini yaxshilashda zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob



beradigan shakllar va uslublarni tashlash;


5. mehnatni meyorlashni takomillashtirish, uning ilmiy darajasini yuksaltirish, joriy qilinishilozim bo‘lgan sohalarini kengaytirish, ilmiy jihatdan asoslangan mehnat meyorlarining salmog‘ini ko‘paytirish;

6. sermehnat, og‘ir ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishchi-xodimlar uchun zarur sanitariya-gigiyena sharoitini yaratish, mehnat va dam olishning qulay tartiblarini joriy qilish, ishlab chiqarish muhitini estetik jihatdan o‘zgartirish;

7. Ishchi-xodimlarning o‘zaro eng qulay mehnat aloqalarini shakllantirish, mehnat va ishlab chiqarish intizomini mustahkamlash, mehnat jarayonida ijodiy faoliyatini rivojlantirib borish.

Mehnat jarayonining tarkibiy qismlari (usullari, harakatlari, qimirlashlari)ning murakkabligi va xilma-xilligi, bu qismlarning bajarilish tartibini mustaqil tanlash, hisoblash, rejalashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyatlari mehnatning mazmuniga muhim o‘zgarishlar kiritadi.

Bugungi zamonaviy mehnat munosabatlari amalga oshirilayotgan davrda, mehnat faqat maqsadga muvofiq faoliyat bo‘lishi mumkin. Bu esa inson tomonidan foydali natijaga erishishga intilish zarurligini anglatadi.



### 1.1-rasm. “Mehnat” tushunchasining mohiyati<sup>1</sup>

Har qanday korxonadagi barcha texnologik operatsiyalar inson ishtirokida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish muhitida mehnat jarayoni – bu ma’lum bir resurslarni aniq bir mahsulotga aylantirishga qaratilgan hodimlarning faoliyati hisoblanadi. Uning asosiy hususiyatlari quyidagilardan iborat:

sarflanadigan energiya va vaqt harajatlari;

kutiladigan natijaning foydaliligi;

daromad;

funksiyalarning bajarilishidan qoniqish darajasi.

**Xulosa.** Mehnat jarayonining mohiyati barcha bosqichlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan operatsiyalar va hodimlar harakati bilan belgilanadi. Mehnat jarayonlarini tashkil qilishda quyidagilar ta’minlanishi kerak:

vazifalarni qabul qilish;

axborot va materiallarni qabul qilish;

texnologiyaga muvofiq tarzda xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishda bevosita ishtirok etish;

<sup>1</sup> Қ.Х.Абдурахмонов Меҳнат иқтисодиёти-назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. – Т.:Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “FAN” нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 21-б.



ko‘zlangan natijaga erishish.

Mehnat jarayoni va uni ratsionalizatsiyalash jismoniy mehnatni qisqarishiga, mehnat faoliyatini amalga oshirishda qulaylik yaratishga, keraksiz va takroriy harakatlarning oldini olishga yordam beradigan muayyan operatsiyalarni bajarish uchun ishlatiladigan usullar bilan ta‘minlanadi. Mehnat jarayonining tasnifi korxonada bajarilayotgan amalda qo‘llaniladigan usullar va texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абдурахмонов Қ.Х. “Мехнат иқтисодиёти” (Дарслик) - Т.: ТДИУ, 2019. 237 бет.
2. Juraev, O. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Location of Production Forces. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 423-431.
3. Жўраев, О. Н. (2022). ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КУЧЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 581-590.
4. Narkulovich, D. O. (2023). WAYS OF PREPARING STUDENTS FOR RATIONAL ORGANIZATION OF WORK IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. Conferencea, 115-118.
5. Narkulovich, D. O. (2023). CASES-AS METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR THE RATIONAL ORGANIZATION OF WORK. Intent Research Scientific Journal, 2(6), 187-192.
6. Djurayev, O. (2023). MEHNATNI TASHKIL ETISHGA DOIR NAZARIY QARASHLAR TAHLILI. Interpretation and Researches, 2(1).
7. Xayriddinov, S. B. (2023). O‘ZBEKISTON OLIY TA‘LIM MUASSASALARI FAOLIYATLARI MOLIYAVIY NATIJALARIGA BIR NAZAR. Research Focus International Scientific Journal, 2(11), 35-39.
8. Хайриддинов, Ш. Б., & Менглибойев, С. Т. (2023). БЮДЖЕТ МУАССАСАЛАРИДА МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШНИ ЎЗИГА ХОС УСУЛЛАРИ. Research Focus, 2(12), 27-32.
9. Xayriddinov, S. (2024). Oliy ta‘lim muassasalarida moliyaviy mablag ‘lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo‘ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to‘g‘risida.
10. Botirovich, K. A., & Batirovich, K. S. (2023). Local Budget Revenues As an Important Link of Territorial Revenue Power.
11. Hazratqulov.Sh.B., Sharopova.Sh.Sh, (2024). Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga asosdir. Journal of science innovate research in Uzbekistan, 2(6), 533-541

